

Konstitutsiyada yoshlarga berilgan imkoniyatlar



12.04.2023

Konstitutsiyada yoshlarga berilgan imkoniyatlar

Bugun yurtimizda yoshlarni har jihatdan qo'llab-quvvatlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, yangilanayotgan Konstitutsiyada ham ko'plab soha va yo'nalishlar qatorida yoshlar masalasiga alohida ustuvorlik berilgan. Bugun "Yer resurslari va kadastr" fakulteti professor-o'qituvchilari va talaba-yoshlar o'rtasida o'tkazilgan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuni loyihasi targ'ibotiga bag'ishlangan "Konstitutsiya meniki, seniki, bizniki! Konstitutsiya o'zimizniki!" shiori hamda "Konstitutsiyada yoshlarga berilgan imkoniyatlar" mavzusida tadbir o'tkazildi.



Tadbirni Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini H.Eshova ochib, Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada alohida bir bobning oila, bolalar va yoshlar masalasiga bag'ishlangani, yoshlar huquqlarini himoya qilishga doir o'zgarish va yangilanishlar yoshlar vakillari tomonidan mamnuniyat bilan e'tirof etilmoqdaligini aytdi. So'ng so'zni tadbir mehmoni Mirzo Ulug'bek tumani Yoshlar ishlari agentligi bo'limi xodimi D.Rasulovga berdi. D.Rasulov o'z nutqida asosiy e'tiborni "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasida yoshlarga oid qator normalar o'z ifodasini topayotganiga qaratdi. Tadbirda qayd etilganidek, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi bilan davlat o'z zimmasiga yana bir mas'uliyatni olmoqda. U ham bo'lsa, davlat yoshlarni o'z himoyasiga olishi masalasi. Yoshlar huquqlari aks etayotgan alohida moddaga ko'ra, davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi. Ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi. Shuningdek, davlat yoshlarning ma'naviy, intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratib berishi belgilanmoqda.



O'qish, munosib ish topish, oila qurish, uyli bo'lish masalasi har bir yoshni jiddiy o'ylantiradigan, qiynaydigan masalalardan bo'lib, bularning barini birdaniga hal qilish juda mushkul. Shu bois davlat endilikda bu kabi masalalarni o'z zimmasiga olmoqda. Ya'ni, yangilanayotgan Konstitutsiyada yoshlarning sifatli ta'lim olishi, ishga joylashishi, uy-joyga ega bo'lishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yurtimizda kechayotgan Konstitutsiyaviy islohotlar jarayoniga befarq bo'lmasdan, umumxalq referendumida faol ishtirok etishga chorlashdi.

"Yer resurslari va kadastr" ning Yoshlar bilan ishlash buyicha dekan muovini H.Eshova axboroti